

Ustozimizni barchamiz doim iliq xotiralar bilan yodga olamiz

Biz uchun alohida hurmatga ega bo`lgan insonimiz, ustozimiz, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti rektori, Respublika oliy ta`lim kengashi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor O`ktam Umurzakov vafot etgani munosabati bilan biz, Xitoy Xalq Respublikasida taxsil olayotgan talabalar, institut jamoasiga hamda marhumning qarindoshlariga o`z taziyamizni bildiramiz.



Ustozni barchamiz doim iliq xotiralar bilan yodga olamiz. Xitoyga ilk borib tushgan kunlarimizga hali ko`p bo`lmasidan, ustozning Xitoyga tashrifi doirasida, biz bilan uchrashish va hol-axvolimizni bilish uchun boshqa shaxardan kelib gaplashganlari hech qachon yodimizdan chiqmaydi. Hohai universiteti kutubxonasida, universitet xodimlari bilan birga o`tirar ekanmiz, ustozning “Bu yigitlar bizning yigitlar, hamma shart-sharoitlariga qaranglar” deb aytganlari barchamizni birdek g`ururlantirgan edi. Chet elda yurgan kezarimizda, bizga nisbatan qaratgan e`tiborlari, shaxsan o`zlari doimiy hol-axvol so`rab turganlari bizni ayniqsa g`ururlantirar va o`zimizga bo`lgan ishochni oshirar edi. Shu ishonch tufayli barchamiz o`z yo`nalishimizda magistraturani muvaffaqiyatli tamomlab, doktorontura bosqichi uchun o`zimiz bitirgan Hohai universitetidan grantlar yutdik. Biz bu yutuqlarimizni doim ustozning bizga bergan rag'batlari bilan bog`laymiz. Ustoz TIQXMMI ni dunyoning nufuzli universitetlari yetakchi ro`yxatiga qo`shaman degan edilar va buning uddasidan chiqayotgan edilar va afsus ishlarini oxiriga yetkaza olmadilar. Qayerda bo`lmaylik biz, ustozning ishlarini davom ettiramiz. Ustoz joylaringiz jannatdan bo`lsin.

TIQXMMI bitiruvchilari,

Hohai universiteti magistratura bitiruvchilari nomidan